

KARANTIN ZARARKUNANDA SITRUS OQQANOTI (DIALEURODES CITRI ASHM.) NING BIOLOGIK XUSUSIYATLARI VA ZARARI.

Qudratillayev Rahmatillo Zafarbek o'g'li
assistent
Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar insituti

БИОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ И ВРЕД КАРАНТИННОГО ВРЕДИТЕЛЯ — ЦИТРУСОВОЙ БЕЛОКРЫЛКИ (DIALEURODES CITRI ASHM.)

Кудратиллаев Рахматилло Зафарбек угли
ассистент
Андижанского института сельского хозяйства и агротехнологий

BIOLOGICAL CHARACTERISTICS AND DAMAGE CAUSED BY THE QUARANTINE PEST — CITRUS WHITEFLY (DIALEURODES CITRI ASHM.)

Qudratillayev Rahmatillo Zafarbek ogli
Assistant at
Andijan Institute of Agriculture and Agrotechnologies

Annotatsiya: ushbu maqolada hozirgi kunda sitrus mevalarda uchrab zarar keltirayotgan kararntin zararkunanda sitrus oqqanoti (*Dialeurodes citri* Ashm.) ning biologik xususiyatlari va zarari haqida ma'lumot keltirilgan.

Аннотация: в статье представлены сведения о биологических особенностях и вредоносности карантинного вредителя цитрусовой белокрылки (*Dialeurodes citri* Ashm.), вызывающего повреждение цитрусовых.

Annotation: the article presents information about the biological characteristics and harmfulness of the quarantine pest of the citrus whitefly (*Dialeurodes citri* Ashm.), which causes damage to citrus fruits.

Kalit so'zlar: kararntin, zararkunanda, sitrus oqqanoti, zarar, himoya qilish.

Ключевые слова: карантин, вредитель, цитрусовая белокрылка, вред, защита.

Key words: quarantine, pest, citrus whitefly, harm, protection.

Xozirgi kunda mevachilik O'zbekistonning asosiy eksport mahsuloti bo'lib, bog'bon fermerlar zimmasiga meva etishtirishda uning hosildorligini keskin ko'tarish, mahsulot sifatini yaxshilash, quruq meva tayyorlash hajmini oshirish, aholini hamda qayta ishlash sanoatini xomashyo bilan to'liq ta'minlab, yuqori sifatli mahsulotni chetga chiqarish yuklatiladi. Mevachilikni yanada rivojlantirish uchun parvarishlash agrotexnikasini doimo takomillashtirib, zamonaviy texnika va texnologiyalarga moslab borish bilan bir qatorda mevali bog'larda uchrovchi zararkunanda, kasallik va begona o'tlardan himoya qilish talab etiladi. [5]. Qishloq xo'jalik mahsulotlari etishtirishda fitomonitoring bazalarini yaratish va joriy etish muhim ahamiyatga ega. Fitomonitoringning asosiy vazifalaridan biri ekinlarning holatini bilish va tahlil qilish, rivojlanish kechikishlarining sabablarini aniqlashdir.

Respublika hududini chet mamlakatlardan kirib kelib, xalq xo'jaligiga katta iqtisodiy zarar etkazishi mumkin bo'lgan karantindagi va boshqa xavfli zararkunandalardan, o'simlik kasalliklari va begona o'tlardan muhofaza etish, ularni vaqtida aniqlash, yoyilishiga yo'l qo'ymaslik hamda yo'q qilish, shuningdek respublikaning bu zararkunanda, kasallik va begona o'tlardan xoli mintaqalariga kirib borishining oldini olish, qishloq xo'jalik mahsulotlari va boshqa o'simlik mahsulotlarini etishtirish, tayyorlash, tashish, saqlash, qayta ishlash, realizatsiya qilish va ulardan foydalanishda o'simliklar karantiniga oid qoidalar va tadbirlargarioya etilishi hamda ularning amalga oshirilishi ustidan davlat nazoratini olib borish hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida qayd etilgan ichki karantin zararkunanda hasharotlarga tsitrus oqqanoti (*Dialeurodes citri* Ashm.), sharq mevaxo'ri (*Grapholitha molesta* Busck.), Kolorado qo'ng'izi (*Leptinotarsa decemlineata* Say.), tsitrus inli kuyasi (*Phyllocnistis citrella* Stain.), komstok qurti (*Pseudococcus comstocki* Kuw.) va Kaliforniya qalqondori (*Quadraspidotus perniciosus* C.) hasharotlari kiradi. Respublikamiz sharoitida limonga sitrus inli kuyasi va sitrus oqqanotlari ko'proq zarar etkazadi.

Sitrus oqqanoti - Homoptera, tengqanotlilar turkumi, - Aleyrodidae, aleyrodidlar oilasiga mansub hasharot. Bu zararkunanda asosan lichinkalik davrida sitrus o'simliklarni so'rib zarar etkazadi. Sitrus oqqanoti asosan sitrus o'simliklaridan limon, mandarin, apelsin va boshqa o'simliklarda rivojlanadi. Shu bilan bir qatorda choy, xurmo, shilvi nastarin, dafna, jasmin, kamfara, gardeniya, ligustrum kabi o'simliklarga ham katta zarar etkazadi. U faqat daraxtlarning barglarida rivojlanadi shu sababli qish mavsumida barglarini to'kadigan daraxtlar butalar qishda oqqanotdan tozalanib turadi. Lichinkalarning barglarni so'rib zararlashi natijasida barglar kuchsizlanadi va o'simliklarning hosildorligi pasayadi. Oqqanotning shirin ajratmalarida zamburug'lar rivojlanadi. Bu esa fotosintezning susayishiga olib keladi, mahsulotning tovar ko'rinishi yo'qoladi, hosildorlik 50 foizgacha pasayadi.

Vatani Janubi-SHarqiy Osiyo (Xitoy, Hindiston) mamlakatlari hisoblanadi. Hozirgi kunda tropik va subtropik iqlimli mamlakatlarda keng tarqalgan. Hindiston, Vetnam, Janubiy Xitoy, Afg'oniston, Yaponiya, Filippin orollari, Seylon va ko'pgina MDH davlatlarida uchraydi. 1942 yildan AQSH, Argentina, Braziliya, CHili, Gavayi orollari, Yevropa, O'rta er dengizi sohillariga tarqala boshlagan. Bugungi kunda ushbu hasharot O'zbekistonning barcha hududlariga tarqalib ulgurgan.

Voyaga etgan hasharotning uzunligi 1,6-2 mm. Tuxumi 0,24-0,32 mm, ellipssimon, sarg'ish rangda. Birinchi yoshdagi lichinkalari (brodyajka) 0,21-0,34mm och sarg'ish, ovalsimon, tana, chetida kalta tukchalari bor. Ikkinchi yoshdagi lichinkasi 0,57-0,67mm, uchinchi yoshdagi 0,91-1,7 mm, to'rtinchi yoshdagi yumaloq och jigar rangli. Ba'zan to'rtinchi yoshdagi lichinkalarni pupariyalar deb ataladi. Sitrus oqqanoti lichinka fazasida qishlaydi. Issiqxonlarda dekabr oyidan to'rtinchi yoshdagi lichinkalar paydo bo'ladi va aprel oyining oxirida hamma lichinkalar shu yoshga etadi (1-rasm). May oyida voyaga etgan hasharotlar keyin tuxum qo'yishini boshlaydi. Bahorgi uchish vaqti 3-4 haftaga cho'ziladi. Urg'ochi tuxumini bittadan yoki to'p-to'p qilib bargning orqa qismiga 125 tagacha (60-170) qo'yadi. Iqlim sharoiti qulay bo'lsa, 225 tagacha tuxum

qo'yishi mumkin. Embrional rivojlanish 10-15 kunga cho'ziladi. Lichinka tuxumdan 18- 20°C ga etgach paydo bo'ladi va bir necha soat o'tganda bargga joylashadi. Yozda rivojlanishi bir oygacha cho'ziladi. Bizning respublikamizda 5 avlod berib rivojlanadi. Oqqanot rivojlanishi uchun havo namligi 80-85% bo'lishi lozim.



1-rasm. Sitrus oqqanoti - *Dialeurodes citri* Ashm. Rivojlanish va hayot sikli.

Zamonaviy dehqonchilik yuritish sharoitlarida o'simliklarni zararkunandalar, kasalliklar va begona o'tlardan himoya qilish strategiyasini yaratish qishloq xo'jalik mahsulotlarini etishtirishning muhim omili hisoblanadi. Zararli organizmlar bilan kurashishning faol usullaridan biri bu kimyoviy usuldir. [4] Zararlanish markaziga birinchi ishlov berish bahorda, yozning boshida imagoning birinchi avlodida o'tkaziladi. Bunda maxsus tavsiyanomalarda keltirilgan kimyoviy vositalardan foydalaniladi. Ikkinchi ishlov lichinkalarning birinchi avlodi ko'plab chiqadigan vaqtda o'tkaziladi. Uchinchi ishlov birinchi va ikkinchi avlod lichinkalariga qarshi o'tkaziladi. Oqqanot bilan kuchli ko'chatlarda to'rtinchi ishlov sentyabrning birinchi yarmidan mevalarga rang kirgungacha amalga oshiriladi. Mevalarni terib olishdan 20-25 kun oldin ishlov berish to'xtatiladi. Purkash ishlari lichinkalarning ikkinchi avlodiga va daraxtlardagi qora dog'lardan tozalash uchun amalga oshiriladi. Kuz-qish oylarida sitrus o'simliklari ildizlari yopiq holatda fumigatsiya qilinadi. Zararlanish markazi tugatilgandan so'ng qurigan shoxlar kesib tashlanadi va zararlangan joylarning o'zida yoqib

yuboriladi. Sitrus oq qanotini tarqalishining oldini olish uchun quyidagi choralarni amalga oshirish lozim:

1. Ko‘chatlar va qalamchalar zararlangan joydan olib kelinsa —brommetill fumigant vositasi bilan zararsizlantirish;
2. Zararlangan hududlardan ko‘chat va qalamchalarni tashishni ta‘qiqlash;
3. Zararlangan xududlarda O‘zbekistonda ruxsat etilgan so‘ruvchi hasharotlarga yaxshi ta‘sir qiladigan kimyoviy preparatlardan foydalanish.
4. Issiqxonalarda agrotexnik tadbirlarni o‘z vaqtida amalga oshirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.X.З.Абдуллаева, З.А.Якубова, А.М.Темиров, О.Ш.Абдуллаев, Защита лимона от цитрусовой минующей моли / XXXXI международная научнопрактическая конференция «Наука в современном мире» (20 апреля 2019г.) с-60-63
- 2.X.Z.Abdullayeva G‘o‘zani zararkunandalardan himoya qilishda axborot kommunikatsion tizimlarini qo‘llash imkoniyatlari / Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. Special Issue 3. – 664-667
- 3.X.З.Абдуллаева Ўсимликларнинг химоя воситаларига бўлган талабини режалаштириш меъёрлари / Хоразм Ма‘mun akademiyasi axborotnomasi –5/1- 2022, 158-160
- 4.X.Z.Abdullayeva, L.T. Ro‘ziyev Mevali bog‘lardagi karantin begona o‘t – zarpechak (Cuscuta L.) va qarshi kurash samaradorligi / International Scientific journal, Volume 1 Issue 6 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337
- 5.О.А.Сулаймонов, М.Т.Арсланов, Ш.К.Алиев., И.Р.Саидов, О.Т.Усвалиев, Х.З.Абдуллаева Ўсимликлар карантини зараркунандалари тарқалишининг олдини олиш ва назорат ўтказиш тартиби / ўқув қўлланма Тошкент 2021. —Ҳаёт нашриёти 322 бет.
- 6.Kh.Yahyaev, Kh.Abdullewa, G.Musaeva, Mz. Rahimov. Methods for selecting significant factors in forecasting and zoning territories / European Chemical Bulletin 12 (7), 2164-2176